1	**EMITENTNING NOMI**	
	To‘liq:	“O’ZDONMAHSULOT” Aksiyadorlik kompaniyasi
	Qisqartirilgan:	“O’ZDONMAHSULOT” AK
	Birja tikerining nomi:	-
2	**ALOQA MA'LUMOTLARI**	
	Joylashgan yeri:	O‘zbekiston Respublikasi, 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 36-uy
	Pochta manzili:	O‘zbekiston Respublikasi, 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 36-uy
	Elektron pochta manzili:	info@uzdon.uz
	Rasmiy veb-sayti:	www.uzdon.uz
3	**MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT**	
	Muhim faktning raqami:	06
	Muhim faktning nomi:	Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar
	Umumiy yig‘ilish turi:	navbatdan tashqari
	Umumiy yig‘ilish o‘tkazish sanasi:	25.06.2021
	Umumiy yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sana:	25.06.2021
	Umumiy yig‘ilish o‘tkazilgan joy:	Toshkent shahri
	Umumiy yig‘ilish kvorumi:	100 foiz

№	Ovoz berishga qo‘yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		Yoqlash		Qarshi		Betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi PF-6096-sonli Farmoniga asosan qo‘shimcha aksiyalar joylashtirish yo‘li bilan “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Emitent)ning ustav fondini ko‘paytirish	100	647766049	-	-	-	-
2	Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi Qaror ilovaga muvofiq tasdiqlansin	100	647766049	-	-	-	-

Umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni:

1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6096-sonli Farmoniga muvofiq “Qoraqalpoqdonmahsulotlari” AJ ustav fondidagi 0,66 foiz davlat ulushi, “Taxiatoshdonmahsulotlari” AJ ustav fondidagi 0,01 foiz davlat ulushi, “Jizzaxdonmahsulotlari” AJ ustav fondidagi 0,047 foiz davlat ulushi, “Namangandonmahsulotlari” AJ ustav fondidagi 0,052 foiz davlat ulushi, “Samarqanddonmahsulotlari” AJ ustav fondidagi 0,03 foiz davlat ulushi hamda “Farg‘onadonmahsulotlari” AJ ustav fondidagi 0,05 foiz davlat ulushi Emitentning ustav fondiga berilayotganligi munosabati bilan ushbu davlat aksiya paketlari nominal qiymati jami 15 599 050 so‘m hisobidan nominal qiymati 1 000 so‘mdan bo‘lgan 15 599 dona umumiy qiymati 15 599 000 so‘mlik egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalar chiqarilsin.

		Qo‘shimcha chiqariladigan aksiyalar yaxlidligini (butligini) ta'minlash maqsadida davlatga tegishli aksiyalar paketlarining nominal qiymatidan qolgan 50 so‘mni keyingi aksiyalar chiqarilishida hisobga olinsin. Qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari quyidagicha belgilansin: - aksiyalar joylashtirilishining usuli: Aksiyalar yopiq obuna usulida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joylashtiriladi; - ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati: Qo‘shimcha aksiyalar ushbu chiqarilish davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab bir yil ichida joylashtiriladi; -ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi: Qo‘shimcha chiqarishdagi aksiyalar Emitent va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida birjadan tashqari uyushmagan bozorlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri bitim tuzish va Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysida ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan tuzish va Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysida ro‘yxatdan o‘tkazish yuli bilan joylashtiriladi. Qo‘shimcha chiqarishdagi aksiyalarni joylashtirishga anderrayterlarni jalb qilish ko‘zda tutilmagan. -ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirish bahosi: 1000 so‘m; - aksiyalarni to‘lash shartlari va tartibi: Aksiyalar uchun to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6096-sonli Farmoniga asosan Emitentning ustav fondiga beriladigan ilovaga muvofiq davlat aksiya paketlari (ro‘yxat ilova qilinadi) nominal qiymatida Emitentga berish yo‘li bilan amalga oshiriladi; - ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan takdirda emitent tomonidan aksiyalar to‘lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi: Ushbu chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan taqdirda bu haqida Emitent www.uzdon.uz rasmiy veb-saytida va Korporativ axborot yagona portali www.openinfo.uz veb-saytida tegishli ma'lumotni e'lon qiladi hamda aksiyalar uchun qabul qilingan to‘lovlar aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida qonunchilikda belgilangan tartibda qaytariladi.
	2	Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi Qaror ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ijroiya organi rahbarining F.I.SH.: Pulatov Farrux Jaxongirovich

Bosh buxgalterning F.I.SH.: O’taev Tolqin Ruzimurodovich

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxsning F.I.SH.: Primov Komiljon Karimovich